XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-24-191-7-0-K/25 Samarqand viloyati

Samarqand viloyatining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” O‘RQ-1105-son Qonuniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2025-yil 20-oktabrdagi (02-1515-son) va Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 25-dekabrdagi (01/57-1-29239-son) xatlarini inobatga olib, Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining yettinchi chaqiriq, yigirma to‘rtinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni (keyingi o‘rinlarda Qonun deb yuritiladi) ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur Qonunga muvofiq Samarqand viloyati mahalliy byudjetining 2026-yilgi daromadlari **7 200,0 mlrd.so‘m** va xarajatlari **8 903,3 mlrd.so‘m**ga ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda respublika byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar **1 703,3 mlrd.so‘m** miqdorida, shundan aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan transfertlar **406,9 mlrd.so‘m** miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Quyidagilar:

Samarqand viloyatining viloyat byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy bashorat ko‘rsatkichlari **1-ilovaga;**

Samarqand viloyatining viloyat byudjetidan 2026-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **2-ilovaga;**

2026-yil uchun viloyat, tumanlar va shaharlar mahalliy byudjetlariga umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar, shuningdek, soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan me’yorlari **3-ilovaga;**

Bunda, mazkur qaror qabul qilingandan so‘ng bir kun muddatda tartibga soluvchi daromadlardan ajratmalarning normativlari bo‘yicha viloyatning viloyat byudjeti bilan tumanlar va shaharlar byudjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda “Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimiga” Samarqand viloyati G‘aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan kiritilishi belgilab qo‘yilsin.

4. Tumanlar va shaharlar byudjetlarining 2026-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi **4-ilovaga** muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. 2026-yil uchun viloyat byudjet, tumanlar va shaharlar byudjetlari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **5-ilovaga** muvofiq belgilansin.

6. Viloyatning viloyat byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **47,9 mlrd.so‘m** miqdorida belgilansin.

2026-yil uchun Samarqand viloyatning viloyat byudjeti, tumanlar va shaharlar byudjetlarining zaxira jamg‘armalari tegishli byudjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (bundan tumanlar va shaharlar byudjetlarining jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga doir mablag‘lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantiriladi.

Bunda, tumanlar va shaharlar byudjetlarining zaxira jamg‘armalari miqdori oldingi yildagi hajmidan kam bo‘lmagan miqdorda shakllantirilishi hamda qo‘shimcha mablag‘larni shakllantirish viloyatning viloyat byudjeti zaxira jamg‘armalari mablag‘larini kamaytirish hisobidan amalga oshirilganligi inobatga olinsin.

7. Quyidagilar:

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar **6-ilovaga;**

jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 kv.m uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar **7-ilovaga;**

noturar ko‘chmas mulk obyektlarining mol-mulk solig‘i bo‘yicha 1 kv.m maydon uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymatga nisbatan kiritilayotgan koeffitsiyentlar **8-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

8. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Buranov), viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (B.Mirzayev), viloyat Soliq boshqarmasi (F.Babayev), tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda 2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

9. Tumanlar va shaharlar hokimliklari, hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar 2026-yil uchun ajratilayotgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash hamda byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha manbalarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

10. Viloyat Soliq boshqarmasi (F.Babayev) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

11. Majburiy ijro byurosi Samarqand viloyati boshqarmasi (B.Xaydarov), viloyat Soliq boshqarmasi (F.Babayev):

soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin;

har chorak yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rsin.

12. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi (A.Egamov), O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlari agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining viloyat hududiy boshqarmasi (A.Yangiboyev):

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha doimiy ravishda xatlov ishlarini tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish, ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlanishini ta’minlasin.

13. “Zarafshon” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (F.Rajabov), viloyat Soliq boshqarmasi (F.Babayev), tuman va shahar hokimlari bilan birgalikda viloyatda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

14. Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (T.Aripov), Majburiy ijro byurosi Samarqand viloyati boshqarmasi (B.Xaydarov) viloyatda byudjetga hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida to‘liq byudjetga undirish choralarini ko‘rib borsinlar.

15. Xalq deputatlari viloyat Kengashi hamda tuman (shahar) hokimlari O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksining 27 va 28-moddalarida belgilangan byudjet sohasidagi vakolatlaridan kelib chiqib, byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushumlar to‘liq va o‘z vaqtida tushishi hamda byudjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

16. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashiga hisobot berib borsin.

Bunda, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan, ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

byudjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

17. Raqobatni rivojlanlantirish va iste’molchilar huquqini himoya qilish qo‘mitasi viloyat hududiy boshqarmasi (B.Toyirov), viloyat hokimligi huzuridagi Tashqi reklamani muvofiqlashtirish bo‘linmasi rahbari (J.Negmatov) hamda tumanlar va shaharlar hokimliklari tashqi reklama obyektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazsin, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashqi reklama obyektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni byudjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

18. O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi huzuridagi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi Samarqand viloyati boshqarmasi (Sh.Boboqulov) byudjetdan ajratilgan mablag‘larni maqsadli ishlatilishini nazorat qilish va amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan har chorakda Xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyalarida axborot berib borish tavsiya etilsin.

19. Viloyat hokimligi axborot xizmati – matbuot kotibi (M.Ixtiyorov) viloyat televideniyesi (D.Ismatov), “Zarafshon” va “Самаркандский вестник” gazetalari birlashgan tahririyati (F.Toshev), “Овози Самарқанд” gazetasi

(B.Raxmonov) ommaviy axborot vositalari orqali Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni e’lon qilinishi hamda hokimliklarning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishi tavsiya etilsin.

20. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Po‘latov) hamda viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Buranov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **NEGMATOV SHUHRAT XUDOYBERDIYEVICH**

Xalq deputatlari Samarqand viloyati
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-24-191-7-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Samarqand viloyatining viloyat byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
JAMI		**4 551 406 034,0**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	273 488 490,0
2	Foyda solig‘i	576 410 670,0
3	Aylanmadan olinadigan soliq	44 241 261,0
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	2 231 001 010,0
5	Aksiz solig‘i, jami	356 880 500,0
	shu jumladan:	
	-alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	10 789 200,0
	-pivo	22 590 000,0
	-benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	*323 501 300,0*
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	209 616 450,0
7	Yuridik shaxslar yer solig‘i	276 749 143,0
8	Davlat boji	271 857 220,0
9	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	1 151 000,0
10	Jarimalar	192 847 200,0

11	Yig‘imlar	117 163 090,0

Xalq deputatlari Samarqand viloyati
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-24-191-7-0-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Samarqand viloyatning viloyat byudjetidan 2026-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlar miqdori, jami		**6 254 667 634**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**5 407 362 634**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	847 305 000
1	**Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi**	**622 233 365**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**288 356 915**
	shundan:	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	**333 876 450**
2	**Kasbiy ta’lim agentligining hududiy boshqarmasi**	**405 666 079**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**405 666 079**
	shundan:	
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3	**Sog‘liqni saqlash boshqarmasi**	**758 860 836**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**258 860 836**
	shundan:	
	Viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi markaziy apparati	61 573 476
	Respublika o‘rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi filiali	2 560 489
	Bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi	2 893 000
	Sog‘likni saqlash boshqarmasi kutubxonasi	802 662
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	500 000 000
4	**Madaniyat boshqarmasi**	**114 759 173**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**114 759 173**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5	**Ma’naviyat va ma’rifat markazi**	**3 841 958**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 841 958**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6	**Sport boshqarmasi**	**138 679 313**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**138 679 313**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7	**Yoshlar ishlari agentligining hududiy boshqarmasi**	**3 555 993**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 555 993**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8	**Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi**	**26 991 030**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**26 991 030**
	shundan:	
	Ko‘p kvartirali uylardagi lift uskunalarini ta’mirlash va yangilash xarajatli	15 410 000
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9	**Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi**	**57 139 660**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**57 139 660**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10	**Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi**	**99 577 068**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**93 227 068**
	shundan:	
	Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	13 420 000
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	6 350 000
11	**Transport boshqarmasi**	**1 846 291**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 846 291**

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
12	**Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi**	**55 813 105**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**55 813 105**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
13	**Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi**	**3 355 623 162**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 355 623 162**
	shundan:	
	Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari	4 500 000
	Advokatlik xizmatlari xarajatlari	2 000 000
	Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hududiy boshqarmasini saqlash xarajatlari	18 060 923
	G‘aznachilik xizmati qo‘mitasining hududiy boshqarmasi	10 161 731
	Kadastr agentligi hududiy boshqarmasini saqlash xarajatlari	3 160 476
	Issiqlik ta’minoti xizmati uchun pasaytirilgan tariflarni qo‘llash natijasida yuzaga keladigan zararni qoplash xarajatlari (subsidiya)	15 562 600
	Tibbiy sug‘urta jamg‘armasiga o‘tkaziladigan transfertlar	3 287 112 325
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
14	**Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasi**	**2 291 645**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**2 291 645**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
15	**Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hududiy boshqarmasi**	**1 691 476**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 691 476**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
16	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi**	**11 420 394**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**11 420 394**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

17	**Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi**	**7 768 148**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**7 768 148**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
18	**Adliya boshqarmasi**	**24 682 169**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**24 682 169**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
19	**Soliq boshqarmasi**	**143 014 930**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**143 014 930**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
20	**Hokimiyat**	**250 073 287**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**242 994 737**
	shundan:	
	Viloyat hokimligi huzuridagi tomorqa sug‘orish markazi Davlat muassasasi	225 000
	Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish o‘quv kursi	991 500
	Zaxira jamg‘armasi	47 936 256
	Xalqaro moliyaviy institutlardan O‘zbekiston Respublikasi kafolati asosida olingan kreditlar bo‘yicha to‘lovlar	50 496 375
	Xalqaro moliyaviy tashkilotlardan O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida olingan kreditlar bo‘yicha asosiy to‘lovlar	105 962 613
	Avtobus yo‘nalishlarini subsidiyalash	2 200 000
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	7 078 550
21	**Hokimiyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)**	**72 041 794**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**72 041 794**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
22	**Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)**	**49 169 368**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**49 169 368**
	shundan:	
	Qabul uylarini saqlash xarajatlari	38 746 553
	Axborot-kutubxona markazlari	4 573 382

	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	5 849 433
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
23	**Xalq deputatlari Kengashi kotibiyatini saqlash xarajatlari**	**10 967 941**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**10 967 941**
	shundan:	
	Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi	5 563 873
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
24	**Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasining hududiy viloyat boshqarmasi**	**10 600 444**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**10 600 444**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
25	**Ichki ishlar boshqarmasi**	**6 046 271**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**6 046 271**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
26	**Mudofaa ishlari boshqarmasi**	**6 593 065**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**6 593 065**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
27	**Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining hududiy boshqarmasi**	**6 555 079**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**6 555 079**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
28	**Boshqa tashkilotlar**	**7 164 590**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**7 164 590**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-24-191-7-0-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yil uchun viloyat, tumanlar va shaharlar mahalliy byudjetlariga umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar, shuningdek, soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan normativlari

foiz hisobida

№	Hududlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan				Qo‘shilgan qiymat solig‘i				Foyda solig‘i				Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)			
		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1	Samarqand shahri	0%	5%	100%	95%	100%	100%	0%	0%	0%	5%	100%	95%	0%	4%	100%	96%	0%	0%	100%	100%
2	Kattaqo‘rg‘on shahri	0%	60%	100%	40%	100%	100%	0%	0%	0%	20%	100%	80%	0%	40%	100%	60%	0%	0%	100%	100%
3	Oqdaryo tumani	0%	33%	100%	67%	100%	100%	0%	0%	0%	20%	100%	80%	0%	15%	100%	85%	0%	0%	100%	100%

4	Bulung‘ur tumani	0%	56%	100%	44%	100%	100%	0%	0%	0%	23%	100%	77%	0%	20%	100%	80%	0%	0%	100%	100%
5	Jomboy tumani	0%	31%	100%	69%	100%	100%	0%	0%	0%	21%	100%	79%	0%	20%	100%	80%	0%	0%	100%	100%
6	Ishtixon tumani	0%	73%	100%	27%	100%	100%	0%	0%	0%	30%	100%	70%	0%	20%	100%	80%	0%	0%	100%	100%
7	Kattaqo‘rg‘on tumani	0%	40%	100%	60%	100%	100%	0%	0%	0%	21%	100%	79%	0%	20%	100%	80%	0%	0%	100%	100%
8	Qo‘shrabot tumani	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	65%	100%	35%	0%	40%	100%	60%	0%	0%	100%	100%
9	Narpay tumani	0%	89%	100%	11%	100%	100%	0%	0%	0%	40%	100%	60%	0%	30%	100%	70%	0%	0%	100%	100%
10	Payariq tumani	0%	58%	100%	42%	100%	100%	0%	0%	0%	45%	100%	55%	0%	50%	100%	50%	0%	0%	100%	100%
11	Pastdarg‘om tumani	0%	59%	100%	41%	100%	100%	0%	0%	0%	19%	100%	81%	0%	10%	100%	90%	0%	0%	100%	100%
12	Paxtachi tumani	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	44%	100%	56%	0%	63%	100%	37%	0%	0%	100%	100%
13	Samarqand tumani	0%	29%	100%	71%	100%	100%	0%	0%	0%	13%	100%	87%	0%	10%	100%	90%	0%	0%	100%	100%
14	Nurobod tumani	0%	50%	100%	50%	100%	100%	0%	0%	0%	30%	100%	70%	0%	23%	100%	77%	0%	0%	100%	100%
15	Urgut tumani	0%	34%	100%	66%	100%	100%	0%	0%	0%	15%	100%	85%	0%	22%	100%	78%	0%	0%	100%	100%
16	Toyloq tumani	0%	49%	100%	51%	100%	100%	0%	0%	0%	20%	100%	80%	0%	15%	100%	85%	0%	0%	100%	100%

Davomi

foiz hisobida

№	Hududlar nomi	Pivo				benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq				Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i				Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq			
		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1	Samarqand shahri	0%	0%	100%	100%	0%	11%	100%	89%	0%	10%	100%	90%	0%	10%	100%	90%	100%	100%	0%	0%
2	Kattaqo‘rg‘on shahri	0%	0%	100%	100%	0%	50%	100%	50%	0%	50%	100%	50%	0%	50%	100%	50%	100%	100%	0%	0%
3	Oqdaryo tumani	0%	0%	100%	100%	0%	5%	100%	95%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%
4	Bulung‘ur tumani	0%	0%	100%	100%	0%	10%	100%	90%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%
5	Jomboy tumani	0%	0%	100%	100%	0%	10%	100%	90%	0%	25%	100%	75%	0%	25%	100%	75%	100%	100%	0%	0%
6	Ishtixon tumani	0%	0%	100%	100%	0%	50%	100%	50%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%
7	Kattaqo‘rg‘on tumani	0%	0%	100%	100%	0%	20%	100%	80%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%
8	Qo‘shrabot tumani	0%	0%	100%	100%	0%	60%	100%	40%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%

9	Narpay tumani	0%	0%	100%	100%	0%	50%	100%	50%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%
10	Payariq tumani	0%	0%	100%	100%	0%	50%	100%	50%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%
11	Pastdarg‘om tumani	0%	0%	100%	100%	0%	10%	100%	90%	0%	50%	100%	50%	0%	50%	100%	50%	100%	100%	0%	0%
12	Paxtachi tumani	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%
13	Samarqand tumani	0%	0%	100%	100%	0%	10%	100%	90%	0%	25%	100%	75%	0%	25%	100%	75%	100%	100%	0%	0%
14	Nurobod tumani	0%	0%	100%	100%	0%	50%	100%	50%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%
15	Urgut tumani	0%	0%	100%	100%	0%	10%	100%	90%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%
16	Toyloq tumani	0%	0%	100%	100%	0%	20%	100%	80%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%

Davomi

foiz hisobida

№	Hududlar nomi	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar				Aylanmadan soliq		Davlat boji		Jarima		Yig‘imlar	
		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB								
1	Samarqand shahri	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%	31%	69%	7%	93%	5%	95%	6%	94%
2	Kattaqo‘rg‘on shahri	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%	100%	0%	13%	87%	10%	90%	11%	89%
3	Oqdaryo tumani	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%	100%	0%	10%	90%	10%	90%	12%	88%
4	Bulung‘ur tumani	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%	100%	0%	10%	90%	10%	90%	10%	90%
5	Jomboy tumani	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%	100%	0%	10%	90%	10%	90%	16%	84%
6	Ishtixon tumani	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%	100%	0%	10%	90%	11%	89%	10%	90%
7	Kattaqo‘rg‘on tumani	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%	100%	0%	10%	90%	10%	90%	10%	90%
8	Qo‘shrabot tumani	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%	100%	0%	11%	89%	15%	85%	14%	86%

9	Narpay tumani	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%	100%	0%	10%	90%	10%	90%	10%	90%
10	Payariq tumani	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%	100%	0%	10%	90%	10%	90%	14%	86%
11	Pastdarg‘om tumani	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%	100%	0%	10%	90%	10%	90%	20%	80%
12	Paxtachi tumani	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%	100%	0%	12%	88%	12%	88%	15%	85%
13	Samarqand tumani	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%	100%	0%	10%	90%	11%	89%	12%	88%
14	Nurobod tumani	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%	100%	0%	10%	90%	10%	90%	10%	90%
15	Urgut tumani	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%	100%	0%	10%	90%	12%	88%	11%	89%
16	Toyloq tumani	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%	100%	0%	10%	90%	10%	90%	10%	90%

Izoh: Boshqa tushumlar tarkibi quyidagicha taqsimlanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin. Yani:

Viloyatning viloyat mahalliy byudjetiga to‘liqligicha:

- Hisob palatasi tomonidan o‘tkazilgan tekshirishlar natijasida aniqlangan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyat byudjetlari va Toshkent shahar byudjetining noqonuniy sarflangan mablag‘lari bo‘yicha tushumlar (3450602)

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar byudjeti xarajatlarini qoplash (3450722)

Ichki audit xizmatlari tomonidan aniqlangan va noqonuniy sarflangan mablag‘lar, talon taroj, rastratalar, kamomadlar summalarining bir qismi, viloyat byudjeti (3450724)

Viloyat darajasida Davlat xaridlarida shartnoma shartlarini bajarmagani yoki lozim darajada bajarmagani tufayli hisoblangan penya (neustoyka) va buyurtmachiga yetkazilgan zararni qoplash uchun undiriladigan mablag‘lar (3450728)

Egasiz mol-mulkni, meros huquqi bo‘yicha davlat ixtiyoriga o‘tgan mol-mulkni, huquq bo‘yicha davlat daromadiga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan xazinalarni realizatsiya qilishdan Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga tushadigan tushumlar (3450907)

- Ichki audit xizmatlari tomonidan aniqlangan va noqonuniy sarflangan mablag‘lar, talon taroj, rastratalar, kamomadlar summalarining bir qismi (3450932)
- Viloyat mahalliy byudjetining boshqa daromadlari (3450960, 3450961)
- Byudjet tashkilotlarining asosiy vositalarini sotishdan viloyat byudjetiga tushadigan tushumlar (3510500);

Tuman va shaharlar mahalliy byudjetiga to‘liqligicha:

Hisob palatasi tomonidan o‘tkazilgan tekshirishlar natijasida aniqlangan, tuman va shahar budjetlarining noqonuniy sarflangan mablag‘lari bo‘yicha tushumlar (3450603)

Shahar va tuman byudjetlari xarajatlarini qoplash (3450723)

Ichki audit xizmatlari tomonidan aniqlangan va noqonuniy sarflangan mablag‘lar, talon taroj, rastratalar, kamomadlar summalarining bir qismi, tuman va shahar budjeti (3450725)

Tuman (shahar) darajasida Davlat xaridlarida shartnoma shartlarini bajarmagani yoki lozim darajada bajarmagani tufayli hisoblangan penya (neustoyka) va buyurtmachiga yetkazilgan zararni qoplash uchun undiriladigan mablag‘lar (3450729)

-Tumanlar va shaharlarning mahalliy byudjetlarining boshqa daromadlari (3450950, 3450951)

- Byudjet tashkilotlarining asosiy vositalarini sotishdan tuman(shahar) byudjetiga tushadigan tushumlar (3511700)

-Ko‘chma savdo obektini auksion savdolari orqali o‘tkazilishidan olingan pul mablag‘lari (3511117)

Yuqorida ko‘rsatilmagan va Hukumat qarorlari bilan alohida ko‘rsatilmagan boshqa tushumlar to‘liqligicha viloyatning viloyat mahalliy byudjetiga tushushi belgilansin.

Xalq deputatlari Samarqand viloyati
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-24-191-7-0-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Tumanlar va shaharlar byudjetlarining 2026-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Daromad	Xarajat
	JAMI	**2 648 598 566,0**	**2 648 598 566,0**
1	Samarqand shahri	338 812 244,0	338 812 244,0
2	Kattaqo‘rg‘on shahri	93 099 256,0	93 099 256,0
3	Oqdaryo tumani	114 875 870,0	114 875 870,0
4	Bulung‘ur tumani	131 144 440,0	131 144 440,0
5	Jomboy tumani	119 364 280,0	119 364 280,0
6	Ishtixon tumani	173 261 947,0	173 261 947,0
7	Kattaqo‘rg‘on tumani	185 759 796,0	185 759 796,0
8	Qo‘shrabot tumani	115 289 511,0	115 289 511,0
9	Narpay tumani	152 327 023,0	152 327 023,0
10	Payariq tumani	181 328 546,0	181 328 546,0
11	Pastdarg‘om tumani	227 755 842,0	227 755 842,0
12	Paxtachi tumani	148 201 738,0	148 201 738,0
13	Samarqand tumani	177 933 684,0	177 933 684,0
14	Nurobod tumani	122 525 535,0	122 525 535,0
15	Urgut tumani	227 168 361,0	227 168 361,0
16	Toyloq tumani	139 750 493,0	139 750 493,0

Xalq deputatlari Samarqand viloyati
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-24-191-7-0-K/25 -son qaroriga
5-ilova

2026-yil uchun viloyat byudjet, tumanlar va shaharlar byudjetlari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI	**40 000 000,0**
	шундан	
1	Viloyat byudjeti	20 520 000,0
2	Samarqand shahri	2 757 000,0
3	Kattaqo‘rg‘on shahri	815 000,0
4	Oqdaryo tumani	955 000,0
5	Bulung‘ur tumani	989 000,0
6	Jomboy tumani	907 000,0
7	Ishtixon tumani	1 147 000,0
8	Kattaqo‘rg‘on tumani	1 221 000,0
9	Qo‘shrabot tumani	874 000,0
10	Narpay tumani	1 157 000,0
11	Payariq tumani	1 292 000,0
12	Pastdarg‘om tumani	1 507 000,0
13	Paxtachi tumani	1 182 000,0
14	Samarqand tumani	1 131 000,0
15	Nurobod tumani	1 071 000,0

16	Urgut tumani	1 506 000,0
17	Toyloq tumani	969 000,0

Xalq deputatlari Samarqand viloyati
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-24-191-7-0-K/25 -son qaroriga
6-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent (0,5 dan 2,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun (so‘mda)
1	Samarqand shahri	1,44	74 592 000
2	Kattaqo‘rg‘on shahri	1,28	66 304 000
3	Oqdaryo tumani	0,85	44 030 000
4	Bulung‘ur tumani	0,85	44 030 000
5	Jomboy tumani	0,85	44 030 000
6	Ishtixon tumani	0,71	36 778 000
7	Kattaqo‘rg‘on tumani	0,72	37 296 000
8	Qo‘shrabot tumani	0,68	35 224 000
9	Narpay tumani	0,85	44 030 000
10	Payariq tumani	0,85	44 030 000
11	Pastdarg‘om tumani	0,87	45 066 000
12	Paxtachi tumani	0,70	36 260 000
13	Samarqand tumani	0,87	45 066 000
14	Nurobod tumani	0,68	35 224 000
15	Urgut tumani	0,86	44 548 000
16	Toyloq tumani	0,86	44 548 000

Xalq deputatlari Samarqand viloyati
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-24-191-7-0-K/25 -son qaroriga
7-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 kv.m uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent (0,5 dan 2,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun (so‘mda)
1	Samarqand shahri	1,40	648,20
2	Kattaqo‘rg‘on shahri	1,18	546,34
3	Oqdaryo tumani	0,66	305,58
4	Bulung‘ur tumani	0,66	305,58
5	Jomboy tumani	0,79	365,77
6	Ishtixon tumani	0,66	305,58
7	Kattaqo‘rg‘on tumani	0,66	305,58
8	Qo‘shrabot tumani	0,66	305,58
9	Narpay tumani	0,66	305,58
10	Payariq tumani	0,66	305,58
11	Pastdarg‘om tumani	0,66	305,58
12	Paxtachi tumani	0,66	305,58
13	Samarqand tumani	0,81	375,03
14	Nurobod tumani	0,66	305,58
15	Urgut tumani	0,67	310,21
16	Toyloq tumani	0,79	365,77

Xalq deputatlari Samarqand viloyati
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-24-191-7-0-K/25 -son qaroriga
8-ilova

Noturar ko‘chmas mulk obyektlarining mol-mulk solig‘i bo‘yicha 1 kv.m maydon uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymatga nisbatan kiritilayotgan koeffitsiyentlar

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent (yirik soliq to‘lovchilardan tashqari)	Minimal miqdor 2026-yil uchun (so‘mda)
1	Samarqand shahri	1,00	2 350 000
2	Kattaqo‘rg‘on shahri	1,15	1 598 500
3	Oqdaryo tumani	0,80	1 112 000
4	Bulung‘ur tumani	0,78	1 084 200
5	Jomboy tumani	0,85	1 181 500
6	Ishtixon tumani	0,80	1 112 000
7	Kattaqo‘rg‘on tumani	0,75	1 042 500
8	Qo‘shrabot tumani	0,60	834 000
9	Narpay tumani	0,75	1 042 500
10	Payariq tumani	0,75	1 042 500
11	Pastdarg‘om tumani	0,90	1 251 000
12	Paxtachi tumani	0,62	861 800
13	Samarqand tumani	0,93	1 292 700
14	Nurobod tumani	0,60	834 000
15	Urgut tumani	0,78	1 084 200
16	Toyloq tumani	0,90	1 251 000